

O‘ZBEKISTONDA AJRALISH SABABLARINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Abdurasulov Olimjon Avalboyevich

ToshDTU Olmaliq filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedراسi dotsenti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif bugungi kundagi eng dolzarb muammo ajralish sabablarini yoritib bergan. Maqolada joriy yilgi statistik ma’lumotlari bilan birga oilalar mustahkamligini taminlash hamda ajrimlar sonini kamaytirishgadi muhim omillar va sabablar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlari: *oila, er-xotin, majburiyat, ajralish, vafordorlik, itoatkorlik, baxtli oila, ichkilikbozlik, narkamaniya, diniy tarbiya, fe‘l-atvor, turmush.*

ABSTRACT

This article sheds light on the reasons for divorce, the most pressing issue today. The article shows the important factors and reasons for ensuring the strength of families and reducing the number of divorces along with the statistical data of this year.

Key words: *family, couple, commitment, divorce, loyalty, obedience, happy family, alcoholism, drug addiction, religious upbringing, character, marriage.*

KIRISH

Bugungi kunda yangi O‘zbekistondagi qonunlarimiz oilani har tamonlama himoyalashga bolalarni Vatanga va oilaga sadoqat ruhida ijtimoiy tarbiyaga mos holda oila va jamiyat oldida javobgarlik xususida tarbiyalashga qaratilgan.

1998 yil 1 sentabrdan amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” oilani mustahkamlash, onalik, otalik va bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy normalarga asoslangan. Oilani mustahkamlash yangi ijtimoiy–iqtisodiy sharoitlarga oila a‘zolarining manfaatlarini qo‘riqlash, voyaga yetmagan bolalarga mehnatga loyaqatsiz oila a‘zolarini himoyalashning ustunligi nazarda tutishining asosiy maqsadlari hisoblanadi .

Bizga ma’lumki oiladagi totuvlik kishilarning ongi turiga hayotga muhabbati, kasbga sadoqat, atrofdagilarga nisbatan e’tibor singari yuksak insoniy fazilatlarini shakilantiradi. Konstitutsiyamizda oila jamiyatining asosiy bo‘g‘ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega ekanligi belgilab qoyilgan. Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakilantirish va yuksaltirishga hech shubhasiz,

oilaning o'рни va ta'siri beqiyos¹. Chunki insoning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlarni birinchi galda oila bag'rida shakillantirish. Yangi oila ma'naviy jihatdan butun bo'lsagina mustahkam bo'ladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta qudratli bo'ladi.

Oilada er xotining huquq va majburiyatlari yuzasida tug'ilyotgan bahslar, turmushning dars ketishi va u bilan bog'liq mojarolar ayrim xonodondagi muhim notinch, ma'naviy ruhiy muhim natijasida sodir bolayotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda bo'lgan masaladir².

Arzimagan bahslar sabab oilaning barbod etilishi, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. Xo'sh nima uchun bunday holat vujudga kelyapti? Asl sababi nimada? Taxminlarga ko'ra, bu muammoning bosh omili – ularning bilimiga yetarli darajada ega emasliklari, huquqiy savodxonlik darjasining pastligidan dolalat beradi. Shuning uchun ular ajralish holati qanday oqibatlariga olib kelishini tushunib yetmaydilar. Oilalarning buzulish sabablari o'rganib chiqilganda, farzandsizlik, xiyonat, uzoq vaqt birga yashamaslik, oilaviy kelishmovchiliklar va qoldan holatlarda yoshlarimizning oila qurushga tayyor emasligi, sog'ligiga etiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarishni, ro'zg'orni moddiy ta'minlashni, farzandlarni ma'nan hamda jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashni o'z burchlari, deb bilmasliklari, qizlarning esa uy bekasi onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi majoralar tufayli yuzaga kelyotganligi ma'lum bo'ldi. Qolaversa ajrashish holatlari oilalardagi kelishmovchiliklar, o'zaro muhabbatning yo'qligi, fe'l-atvorning to'g'ri kelmasligi er yoki xotinning kasalligi, achinarlisi, ayrim yigitlarning ichkilikbozlikka, giyohvandlikga berilib ketishi yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi natijasida ham kelib chiqmoqda .

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bilamizki, oilalar tinchligi va mustahkamligida oila boshlig'i erkaklarning o'рни hamda ma'sulyati juda katta³. Chunki hayotning uning qiyinchiliklarini ular o'z yelkalariga oladilar. Afsuski, amalyotda ko'rib turumizki, erkaklarning oilaviy munosabatlarda o'z o'rnini yoqotib qoyoyotgani, yani ikkinchi darajaga tushub qolayotgan holatlar ham yo'q emas.

Xo'sh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiatga ega. Unga bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, yani oyladagi ajirimlarni oldini olishga asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ularda oila muqqadas

¹ Avloniy A. Guluston yohud axmoq. Islom odobidan mumtoz namunalar T.1993.-120 bet.

² Akromova F.A. oilada muamalani tashkil etish psixalogiyasi. T. "Shams ASA" 2006.- 90 bet.

³ O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksi . Toshkent: "adolat" 1998.-300 bet.

qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, yangi noodatiy usul va yondoshuvlar asosida olib boorish kerak.

Yoshlar oila atalmush muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo'yar ekan "Men oila qurushga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo'lishi uchun nimalar qilishim kerak?" degan savollarni o'ziga bersa, mustahkam hayotrga yuzaki emas, o'ta jiddiy masala deb qarasa oilalarda paydo bo'ladigan ba'zi bir nohush holatlarning oldi olinadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda oilaviy ajralishlarning masalasida rekord ko'rsatgich qayd etilmoqda. 2023-yilning 8 oyida qariyb 34-mingta oila ajralib ketdi, bu oilalardagi 25 ming bolalar endi kundalik hayotini otasiz yoki onasiz davom etiradilar.

Hozirgi vaqtda ajralish sabablaring psixologik sabablari er-xotinning oilaga tayyor emasligi, uchinchi shaxs aralashuvi, moliyaviy qiyinchiliklar, xiyonat, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, uzoq vaqt birga yashamaslik va farzandsizlikdir⁴. Qaynonalarning ham oila borasida ilmi tajribasi yo'q, tashqaridan kelgan bir qizga qanday munosabatda bo'lishni bilmaydi. Bundan tashqari oilada qaynotalarning ham roli yo'q, indama, tinch qo'y, deya olmaydi. Bu esa oilalarda erkaklar ro'li pasayib ketayotganidan dalolat beradi. Bunday sabablarning eng asosiysi oilada oila ilmi yoqligidir. Onalarimiz o'g'il bolalarni haqiqiy erkak qilib tarbiya qila olmayapti. Ammo ma'lumotlarga ko'ra so'nggi vaqtlarda ajrim uchun ko'rsatilayotgan sabablarning deyarli hech biri arzili emas, yechimini topsa boladigan muammolardir. Eng ko'p bohona sifatida ko'rsatilayotgan sabablar deb bu, yigit-qizning fe'l-atvori bir-biriga to'g'ri kelmayotgani. Buni qarangkiy fe'l-atvor oiladagi tarbiya, ijtimoiy muhit, ota-ona ibratiga borib taqaladi.

Shuningdek, o'rganishlar shuni ko'rsatyaptiki, qaynonalarning o'ta talabchanligi, yoshlarni oilaga yengil-elpi qarayotganligi, muommala va tinglash madaniyati yoqligi, xiyonatning avj olayotgani kattalarning notogri aralashuvi ajrimlarga olib kelayotganini ko'rsatmoqda.

Bu jaroyonga yigitlarning mustaqil fikri yoqligi, ma'sulyatni his etmasligi ham sabab bo'layotgani ko'zga tashlanmoqda. Bu yil ajralish natijalarining o'sishi eng ko'p Toshkent shahriga tog'ri kelmoqda. Toshkent fuqorolik ishlari bo'yicha shahar sudi poytaxtimizga joriy yilning 9-oyida sudlarga nikohdan ajralish haqida kamida 6 ming 347 ta ish kelib tushqani haqida ma'lumot berdi, shundan 4 ming 401 tasi tamomlangan.

Xo'sh, sabab va omillar aniqlangan ekan, u qanday bo'ladi? Aslini olganda keltirilayotgan sabablarning hammasi yana ta'lim-tarbiya va milliy o'zlikni anglash

⁴ Karimova V.M. Oilaviy hayot psixalogiyasi.T.2003.-142 bet.

degan tushunchaga borib taqalmoqda. Oila qurush oson⁵, ammo uni asrab qolish farzandlarga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, bu turmushning mustahkamligiga yordam beradi. Keyingi vaqtlarda er-xotinning oiladagi o'rni o'zgarayotgani azaliy an'analarimizga yot ravishda turli salbiy illatlar o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizga oilalar mustahkamligini ta'minlash, ajirimlar sonini kamaytirish maqsadida birinchi navbatda quydagilarga ahamiyat berish kerak: oila ma'suliyatini his qilish kerak; yaqin qarindoshlar bilan turmush qurmaslik; bir-biriga nisbatan o'zaro hurmat; turmushga tayyor bo'lishlari lozim; oilaviy hayotga qarindoshlar aralashmasligini ta'minlash; erta yoshda oila qurmasliklari lozim; hayotga ruhiy tamonlama tayyor bo'lish lozim; bir-birini yaxshi o'rganish kerak; uy-joy bo'lishi kerak; ota-ona maslahatiga quloq solish kerak; har ikkala tomon ham ish bilan taminlangan bo'lishi kerak; tibbiy ko'rikdan o'tishlari zarur; din va diniy tarbiyaga ko'proq e'tibor qaratish lozim; ikki tomon ham bir-biriga moddiy jihatdan teng bo'lishi; sevgi-muhabbat asosida oila qurish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Avloniy A. Guluston yohud axmoq. Islom odobidan mumtoz namunalar T. 1993 yil. 120 bet.
2. Akromova F.A. oilada muamalani tashkil etish psixalogiyasi. T. "Shams ASA" 2006 - 90 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksi. Toshkent: "Adolat" 1998 yil 300 bet.
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixalogiyasi. T. 2003 yil 142 bet.
5. Shoumarov G'.B. Sog'inov N.A o'zbek oilalarida ajralish va uning ijtimoiy psixalogik xususiyatlari. O'zbek oilasining etnopsixalogok muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani mavzularining qisqacha bayoni –Toshkent.1993-100-112 bet.
6. E.S. Kurbonnazarovich. The scientific and philosophical analysis of the concepts of confidence and faith. Наука, инновации, образование: актуальные вопросы XXI века, 126.
7. S.K. Eronov Specific manifestation of the trust phenomenon in modern society. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*. 11 (1), 1772-1776 c.
8. С.Қ. Эронов. Замонавий илмий билимларнинг ёшлар дунёқарашини юксалтиришдаги ўзига хос хусусиятлари. *Educational Research in Universal Sciences* 2 (14), 199-205.

⁵ Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A o'zbek oilalarida ajralish va uning ijtimoiy psixalogik xususiyatlari. O'zbek oilasining etnopsixalogok muammolari. Respublika ilmiy-amaliy Anjumani mavzularining qisqacha bayoni –Toshkent.1993-100-112 bet.